

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA
VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH**

Shaxnozaxon Nishonboyeva va Sayyoraxon Xamraqulova

*Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani 1- umumiy o‘rta ta‘lim maktabining
Oliy toifali boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari*

Annotatsiya: Vatan — inson qalbida alohida joy egallagan muqaddas tushuncha. U tuproq, tog‘lar, daryolar, shaharlar va qishloqlar bilan birga xalqning tarixi, madaniyati, til va urf-odatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bolalar uchun vatan tushunchasini singdirishda uni faqat geografik makon sifatida emas, balki mehr, g‘urur va javobgarlik makoni sifatida ham tushuntirish kerak. Maktabning boshlang‘ich bosqichida bu g‘oya oddiy, yaqin va amaliy misollar orqali berilganda bolalar uni yaxshiroq anglaydi. Muhim jihat shuki, vatanni sevish va unga sodiq bo‘lish — kundalik hayotdagi kichik, ammo muhim harakatlardan boshlanadi.

Kalit so‘zlar: vatan, millat, xalq, tarix, madaniyat, til, dunyoqarash, bag‘rikenglik, qadriyatlar, hamkorlik, hamjihatlik, hurmat.

Аннотация: Родина — священное понятие, занимающее особое место в сердце человека. Она включает в себя историю, культуру, язык и традиции народа, а также землю, горы, реки, города и села. Прививая детям понятие родины, необходимо объяснять её не только как географическое пространство, но и как место любви, гордости и ответственности. Дети лучше понимают эту идею, когда её преподносят на простых, близких и практических примерах уже на начальном этапе обучения в школе. Важно, что любовь и преданность родине начинаются с небольших, но важных поступков в повседневной жизни.

Ключевые слова: родина, нация, народ, история, культура, язык, мировоззрение, толерантность, ценности, сотрудничество, солидарность, уважение.

Abstract: Homeland is a sacred concept that occupies a special place in the human heart. It includes the history, culture, language and traditions of the people, along with the soil, mountains, rivers, cities and villages. When instilling the concept of homeland in children, it is necessary to explain it not only as a geographical space, but also as a place of love, pride and responsibility. Children understand this idea better when it is presented through simple, close and practical examples at the initial stage of school. The important point is that loving and being loyal to the homeland begins with small but important actions in everyday life.

Keywords: homeland, nation, people, history, culture, language, worldview, tolerance, values, cooperation, solidarity, respect.

KIRISH

Maktabda vatan mavzusini o‘qitish jarayoni bolalar dunyoqarashi, his-tuyg‘ulari va ijodiy qobiliyatlari inobatga olinib tashkil etilishi lozim. Darslar rasm, qo‘shiqlar, hikoyalar, o‘yinlar va amaliy ishlardan iborat bo‘lishi kerak. Bolalarga vatan ramzlarini tanitish muhim: bayroq, gerb va madhiya. Bu ramzlar nima uchun muqaddas ekanligini oddiy, hayotiy misollar yordamida tushuntirish zarur. Bayroq — bir mamlakatning ramzi ekanini, gerb esa uning tarixiy belgisi ekanini ko‘rgazmali tushuntirish mumkin. Madhiya esa xalqning birlik va g‘urur ifodasi sifatida talqin etiladi. Ramzlarni rasm chizish, ularni bo‘yash, qo‘shiqlarni birga kuylash bolalarda faxr tuyg‘usini uyg‘otadi va mavzuni ko‘proq eslab qolishga yordam beradi. Millat tushunchasini bolalarga yetkazishda ularning atrofidagi do‘stlari, qo‘shnilari va mahalliy odamlar orqali misollar keltirish maqsadga muvofiq. Millat — umumiy til, madaniyat va qadriyatlarni baham ko‘radigan odamlar guruhidir. Bolalar oiladagi an‘analari, milliy taomlar va bayramlar orqali millatni his etadi. Shu sababli darslarda milliy kiyimlar, taomlar, qo‘shiqlar va o‘yinlar bilan tanishtirish lozim. Turli mintaqalardan kelgan fuqarolar bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatish, ularni tushunish va hurmat qilish boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglikni o‘stiradi. Bu esa millatning yanada boy bo‘lishini ko‘rsatadi. Xalq tushunchasi ham oddiy tilda tushuntiriladi. Xalq — bir hududda yashovchi odamlarning umumiy hayoti, mehnati, tarix va urf-odatlaridir. Bolalarga o‘z mahallasi, shahridagi odamlar, ularning mehnati va kundalik hayoti haqida so‘zlab berish orqali xalqni yaqinlashtirish mumkin. Turli kasb egalarini, ularning mehnatlarining foydasini ko‘rsatish orqali bolalarda hamjamiyatga hurmat va minnatdorchilik tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Shuningdek, madaniyat markazlari, kutubxonalar va muzeylarga sayohat tashkil etish orqali bolalar tarix va xalqning madaniy merosini ko‘z bilan ko‘rib, uning qadriga yetadi. Darslarni interaktiv qilish muhim sanaladi. O‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar, dramatizatsiyalar va kichik loyihalar bolalarning diqqatini tortadi. Masalan, maktabda “Mening vatanim” mavzuidagi rasm va kollajlar tanlovi uyushtirish mumkin. Bolalar oilalari haqida hikoyalar to‘plami tayyorlab, ularni sinfda aytib berishsa, oilaviy tarixlariga qiziqish ortadi. O‘yinlar orqali ham vatan sevgisi tarbiyalanadi: maktab hududini toza tutish bo‘yicha kichik tanlovlar o‘tkazish, daraxt ekish va tabiatni asrashga doir faoliyatlarda qatnashish bolalarga amaliy vatanparvarlikni o‘rgatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarixdan ma‘lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta‘limotlarning bosh g‘oyasi bo‘lib kelgan. Binobarin, muqaddas manbalarda ham “Vatanni sevmok iymondandir”, deyilgan. Shunday ekan, Vatan tarixini bilgan, ulug‘ ajdodlar merosini chuqur o‘rgangan har bir inson qalbida milliy g‘urur-iftixor tuyg‘ulari yanada jo‘sh urib, el-yurtga, Vatanga sadoqati ortib boraveradi.

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy Vatanni sevish va uni ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta’riflaydi. “Vatan. Har bir kishining tug‘ulib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayirilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas, maishati talx bo‘lub, hap vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”. [1]

Vatanparvarlik tuyg‘usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo‘lish, tinchlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi. Bugungi zamon shiddati inson uchun ma’naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni ma’naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini namoyon etmoqda. [2]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ota-onalar bilan hamkorlik bu jarayonning ajralmas qismidir. Uyda ota-onalar bolalar bilan milliy qo‘shiqlar kuylash, oilaviy tarix haqida suhbatlar o‘tkazish, bolalarga tarixiy hikoyalar aytib berish orqali vatan va millat tuyg‘usini mustahkamlaydi. Maktab va ota-ona hamkorligida tashkil etilgan tadbirlar orqali bolalar o‘z ishlarini oilaga ko‘rsatib, o‘zlariga ishonch hosil qiladi. Mahalla va jamoat tashkilotlari ham darsga yordam berishi mumkin: ekspertlar, milliy hunarmandlar, askarlar yoki eski davr qahramonlari haqida so‘zlovchilarni taklif qilish darslarni yanada boyitadi. Dars qo‘llaniladigan metoda va o‘quv materiallari bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Hikoyalar, qahramonlar, rasmlar, sahifalar va o‘yinli topshiriqlar taqdim etilganda bolalar mavzuni tez o‘zlashtiradi. Elektron resurslardan foydalanish mumkin, biroq ularni yoshga mos va xavfsiz qilib tanlash zarur. O‘qituvchilar dars rejasini tayyorlashda lokal tarix va an’analarni inobatga olib, amaliy jihatlarni ko‘paytirsa, o‘quvchilar bilan ishlash samarali bo‘ladi. Masalan, mahalliy qahramonlar hayoti va ularning yurtga xizmatlari haqida oddiy hikoyalar yozib berish, bolalarni bu qahramonlar bilan tanishtirish yaxshi natija beradi.

Baholash jarayoni bilimdan tashqari bolalarning munosabati va ko‘nikmalariga yo‘naltirilishi lozim. Baholash ijobiy ruhda bo‘lishi, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali bolaning qiziqishini uyg‘otishi kerak. O‘quvchilarning ijodiy ishlari, rasm va kollajlari, loyiha ishlari ham baholanishi mumkin. Portfel usuli orqali har bir bolaning ishlari saqlansa, uning rivojishini kuzatish osonlashadi. Baholashda ota-onalarning fikri ham inobatga olinishi lozim. O‘qituvchining roli juda katta. O‘qituvchi o‘z harakatlari bilan bolalarga namuna bo‘lishi lozim. U darslarni qiziqarli va ko‘rgazmali o‘tkazishi kerak. O‘qituvchi milliy qadriyatlarni, hurmat va bag‘rikenglik tamoyillarini darsga singdirsa, bolalar butun hayoti davomida bu fazilatlarni asrab-avaylaydi. Malaka oshirish kurslari, pedagogik seminarlar va tajriba almashish o‘qituvchilarga yangi metodlar beradi. Tarixiy mavzularni yoritishda ehtiyotkorlik zarur. Qiyin voqealarni bolalarga tushunarli va zarar bermaydigan tarzda tushuntirish kerak. Konfliktlar va urushlar haqida gapirganda tinchlik, hamjihatlik va murosaga chaqirish g‘oyalarini asosiy qilib olish muhim. Bolalarga boshqalarni hurmat qilish, yordam berish va bir-biriga mehr ko‘rsatish tamoyillari singdirilishi lozim. Shu yo‘l bilan kelajak avlod tinchlikni qadrlaydigan insonlar bo‘lib yetishadi.[3]

Madaniyat va an‘analarni targ‘ib qilish orqali milliy o‘zlik saqlanadi. Qo‘shiqlar, xalq og‘zaki ijodi, ertaklar va ertak qahramonlari bolalar uchun juda muhim manba hisoblanadi. Ularga ilmga chanqoqligini, donolik va halollik kabi fazilatlar singdirilishi lozim. Har bir bayram, har bir an‘ana bolalarga o‘z ajdodlari bilan aloqani his ettiradi. Bayramlar davomida do‘stlik va bag‘rikenglikni ko‘rsatish orqali bolalar ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Amaliy loyihalar bolalar ongini mustahkamlaydi. Maktabda va mahallada turli loyihalarni amalga oshirish, masalan, “Mening mahallam”, “Oila tarixim”, “Bizning madaniyatimiz” kabi kichik loyihalar bolalarda ilmiy va ijodiy fikrlashni o‘stiradi. Ushbu loyihalarda ota-onalar va jamoatchilik ishtirok etsa, marshrutlar va sayohatlar tashkil etilsa, bolalar o‘z ishidan faxrlanadi. Har bir yutuq, har bir mehnat namunasi bolalarga motivatsiya beradi. Shu bilan ular o‘z hayotida ham shunday mehnat va fidoyilik ko‘rsatishga intiladi. Bu esa mamlakatning kelajagi uchun muhimdir. Vatan, millat va xalq mavzularini darslarda yoritishda doimiylik va izchillik talab qilinadi. Bir yoki ikki dars bilan cheklanish mazmunli natija bermaydi. Bu mavzu maktab hayotining bir qismi bo‘lishi kerak. Muntazam tadbirlar, darsliklar va loyihalar orqali bolalar o‘zlarining milliy o‘zligini rivojlantiradi va bunga asos bo‘ladigan qadriyatlarni egallaydi. Pedagoglar uchun tavsiya etiladigan usullar: hikoya va ertakdan keng foydalanish, musiqiy va badiiy ijodga joy berish, jamoaviy ishlarni rag‘batlantirish, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. Shu usullar orqali darslar nafaqat ma’lumot berish, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. [4]

XULOSA

Vatan, millat va xalq mavzusi boshlang'ich sinflarda bolalarning ma'naviy va ijtimoiy tarbiyasida asosiy o'rin tutadi. Ushbu mavzuni o'qitishda interaktiv metodlar, amaliy loyihalar, ota-ona va jamoatchilik hamkorligi hamda milliy madaniyatga e'tibor berish zarur. Maqsad — bolalarda vatanparvarlik, millatga hurmat va bag'rikenglik hissini shakllantirish, ularni mas'uliyatli va mehribon fuqarolarga aylantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axrorov, Yu., Qobilova, R. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. –57-b.
2. Ibrohimov, A., Sultonov, X., Jo'raev, N. Vatan tuyg'usi.–T.: “O'zbekiston”, 2020. –145-b.
3. Norbo'taev, X. Darslarni interfaol uslubda tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Konsentrik ta'lim kontekstida innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-uslubiy maqollar to'plami. –T.: “Yangi sharq”, 2017. – 139-b.
4. Xolmatov, P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasbhunarga yo'llash. 13.00.02-Mehnat ta'limi nazariyasi va metodikasi. Ped. fan. nomz. diss. – Guliston, 2004. – 134-b.
5. Ochilov, M. O'qituvchi–qalb me'mori.–T.: “O'qituvchi”, 2021. –104-b.
6. Mamarasulov B.Sh. Milliy g'oyaning substansional va institutsional xususiyatlari (O'zbekiston misolida). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoreferati. – Samarqand. – 2018. 12 – bet.
7. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat. Tafakkur. – 2007,- №4. - 24 – bet.